

O'QISH DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI HIKOYA HAQIDAGI TASSAVURLARINI UYG'OTISH USULLARI

1. Daminova Shoxista Farxodovna

2. Burxonova Aziza Asliddin qizi

1. Jizzax davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha va boshlang'ich yunalishlarda
masofaviy ta'lim” kafedrası o'qituvchisi

2. Sirtqi bo'lim boshlang'ich ta'lim yunalishi 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7735486>

Annotatsiya: Maqolada o'qish darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini hikoya haqidagi tassavurlarini uyg'otishda ayniqsa, yoshlar tarbiyasida tarbiya vositalari, olimlari va asarlarining hech bir jihatlarini e'tibordan chetta qoldirmaslik kerakligi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlari: Hikoya, badiiy asar, matn, ta'lim. milliy qadriyatlar, ijodiy, adabiy.

Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik psixologik va intellektual salohiyati bo'yicha chuqur bilimga egaligi, inovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, “Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir.

Aynan ta'lim va ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo'lishga undaydi”. Buning uchun, avvalo, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga katta e'tibor qaratish zarur. Biz ham mazkur ishimiz orqali Prezidentimiz ta'kidlagan asosiy maqsadga erishishga harakat qilmoqdamiz.

O'qish darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini hikoya haqidagi tassavurlarini uyg'otishda ayniqsa, yoshlar tarbiyasida tarbiya vositalari, olimlari va asarlarining hech bir jihatlarini e'tibordan chetta qoldirmaslik kerak. Biz ushbu ishimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarini hikoya haqidagi tassavurlarini uyg'otishda ularning milliy-ma'naviy tarbiyasida hikoya va rivoyatlardan foydalanish uslubiyati haqida o'z ilmiy – uslubiy ishlanmalarimizni keltiramiz maqsadga muvofiqdir.

Hikoya badiiy adabiyotda kichik epik janr, hayot, hodisalari ixcham ifoda etilgan ba'zan uydirmalardan iborat bo'lgan qiziqarli voqea va hodisalar kiradi. Hikoyaning kelib chiqishi xalq og'zaki ijodining afsona, ertak, latifa kabi shakllariga borib taqaladi. Sharq adabiyotida ham g'arb adabiyotida ham hikoya qadim an'analarga ega. Biroq u mustaqil janr sifatida faqat yozma adabiyotdagina shakllangan. Demak, hikoyadan foydalanish natijasida biron bir ko'zlangan maqsadimiz nuqtai nazardan so'zlab beramiz. Bunda o'quvchilarni tarbiya olish jarayonida ularning e'tiborini qaratish va fanga bo'lgan qiziqishini oshirishimiz va bu hikoya zahirida qanday ezgu – niyatlar yotganini tushuntirishimiz lozim bo'ladi.

Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalari haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo'lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar.

Hikoyani o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etganini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya syujeti, voqeaning yo'nalishini ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o'ziga tortadi. Lekin, hikoya janri ham hayotiyliigi bilan o'ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog'liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O'quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar.

Xulosa qilib aytganda hikoya biror bir davr bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchilar qahramonlarning ma'naviyatiga bo'lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong'i tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo'la boshlaydilar. Ularda go'zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi. Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqozo etadi. Undagi har bir so'z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi. Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o'rganishdagina emas, tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o'qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo'lib xisoblanadi.

References:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-jild). – Toshkent: O'zbekiston. NMIU, 2017. 592 b.
2. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim. 2006, 5-son.
3. G'afforova T., va boshqalar. 1-sinfda o'qish darsligi T.: 2003.
4. Bolalar adabiyoti. T.: 2008.
5. Internet ma'lumotlari.